O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Boshlang‘ich kasbiy ta’lim darajasi

Umumta’lim fan



Davlat va huquq asoslari fanidan namunaviy o‘quv dasturi

Toshkent-2025

Mazkur umumta’lim fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etildi.

Tuzuvchilar:

Shayxontohur tuman politexnikumi Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi	Sobirova Farida Sherali qizi
Shayxontohur tuman politexnikumi Tarix, Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi	Azimova Nodira Qaxxarovna
Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi	Farmonova O‘g‘iloy Eshonqulovna

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

Kirish.

I bob. Jamiyat va inson huquqlari
(4 soat)

Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni.

Jamiyat, shaxs va inson huquqlari tushunchasi. Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg‘unligi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari kafolati.

Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi.

Shaxsning huquqiy maqomi (holati). Tenghuquqlik. Gender tenglik. Zo‘ravonlikning oldini olish.

Inson huquqlari va huquq ustuvorligi.

“Huquq ustuvorligi” tushunchasi. Huquq ustuvorligi – inson huquqlarini ta’minlashning garovi. Inson huquqlari madaniyati.

Inson huquqlari va ijtimoiy himoya.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi. Aholini ijtimoiy himoyalash. Ijtimoiy himoyalashda insonparvarlik tamoyilining o‘rni.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilik.

Milliy qonunchilik tizimi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro mezonlarning milliy qonunchilikda aks etishi. Axborot davrida inson huquqlarining himoyasi.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar.

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat organlari tizimi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning ahamiyati. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o‘rni.

Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.

II bob. Oilaviy – huquqiy munosabatlar
(6 soat)

Jamiyatda oilaning o‘rni.

Oila – jamiyat tayanchi. Jamiyatda oilaviy munosabatlarni tartibga solish. Oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi.

Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari.

“Nikoh” tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh tuzish tartibi. Nikohni tuzishga monelik qiladigan holatlar. Nikoh tugatilishining oqibatlari.

Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi.

Er-xotin huquqiy maqomining vujudga kelishi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari. Oilada ota-onaning huquq va majburiyatlari.

Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari.

Bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Bola huquqlari va uning kafolatlari. Farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari.

Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari.

“Aliment” tushunchasi. Aliment turlari. Bolalarga va ota-onalarga beriladigan ta’minot.

Seminar: 1 soat

Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi-1.

III bob. Fuqarolik - huquqiy munosabatlar (6 soat)

Fuqarolik huquqi asoslari.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi. “Bitimlar” tushunchasi.

Fuqarolik - huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari.

Fuqarolik huquqida “shaxslar” tushunchasi. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari. Fuqarolik-huquqiy munosabat obyektlari.

Mulkiy va nomulkiy munosabatlar.

“Mulkiy munosabatlar” tushunchasi. Mulk shakllari. Nomulkiy munosabatlar va ularning huquqiy asoslari.

Majburiyatlar.

“Majburiyat” tushunchasi. Majburiyatning taraflari. Majburiyatlarning vujudga kelishi va bajarilishi.

Majburiyatlarning turlari.

Shartnomada majburiyatlarning ifodalanishi. Shartnomalarning ayrim turlari.

Iste’molchilar huquqlari.

“Iste’molchilar” tushunchasi. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish. Iste’molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari.

Intellektual mulk.

“Intellektual mulk” tushunchasi. Intellektual mulk obyektlari. Mualliflik huquqi.

Vorislik.

“Vorislik” tushunchasi va vorislik huquqi. “Meros” va “merosxo‘rlik” tushunchasi. Vasiyatnomaning huquqiy asoslari.

Seminar: 1 soat

Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi.

IV bob. O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat
(4 soat)

Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi.

Xalqaro hamjamiyatning o‘ziga xosligi. Xalqaro hamjamiyatning tuzilishi. Xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi omillar.

Xalqaro huquq.

Xalqaro huquqning vujudga kelishi va o‘ziga xos jihatlari. Xalqaro huquqning maqsadi. Xalqaro huquqning manbalari. Xalqaro huquq va milliy huquq.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo‘lishi. Xalqaro hamjamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash. O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari**.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlari. Bola huquqlarini himoya qilishda BMTning faoliyati.

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni.

O‘zbekistonning tashqi siyosati. O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish. Fuqarolikni yo‘qotishning huquqiy asoslari. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari.

O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar.

O‘zbekiston o‘z fuqarolarini chet elda himoya qilishi. Chet el fuqarolarining huquqlari. Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning himoyalanishi.

Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi-2.

V bob. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar
(6 soat)

Mehnatga oid munosabatlar.

Mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslari. Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari. Mehnat qonunchiligi manbalari. Mehnat huquqining subyektlari. Mehnat qonunchiligining prinsip (tamoyil)lari.

Ishga joylashtirish.

Ishga joylashtirish. Ish beruvchi. Xodim. Mehnat shartnomasi (Tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish). Mehnat daftarchasi. Elektron mehnat daftarchasi. Ariza (Rezyume, CV) to‘ldirish. Sinov muddati. Xalqaro huquqda mehnat munosabatlari.

Ish vaqti va dam olish vaqti.

Ish vaqti tushunchasi. Ish vaqtining muddatlari. Dam olish vaqti tushunchasi. Dam olish vaqtining turlari.

Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan kafolat va imtiyozlar.

Ayrim toifadagi xodimlar tushunchasi. Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan kafolatlar. Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan imtiyozlar. Voyaga yetmaganlarning mehnat qonunchiligidagi huquqlari. Yoshlarga beriladigan qo‘shimcha imtiyozlar.

Mehnatga haq to‘lash va mehnatni muhofaza qilish.

Mehnatga haq to‘lash tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi.

Mehnat nizolari va ularni hal etish tartibi.

Mehnat nizolari tushunchasi. Yakka mehnat nizolari. Mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlar.

Seminar: 1 soat

Ijodiy faoliyat.

VI bob. Ma’muriy-huquqiy munosabatlar
(4 soat)

Ma’muriy huquq tushunchasi.

Ma’muriy-huquqiy munosabatlar. Ma’muriy huquq tizimi va manbalari. Ma’muriy huquq prinsip (tamoyil)lari. Ma’muriy huquq subyektlari.

Ma’muriy huquq normalari.

Ma’muriy huquq normalari tushunchasi. Ma’muriy huquq normalarining turlari. . Ma’muriy huquq va davlat boshqaruvi. Davlat xizmati tushunchasi. Davlat xizmatining yo‘nalishlari.

Ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik.

Ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi. Ma’muriy huquqbuzarlikning turlari. Ma’muriy javobgarlik tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Voyaga yetmaganlarning Ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi.

Ma’muriy jazo. Ma’muriy jazoning qo‘llanilishi.

Ma’muriy jazo tushunchasi va maqsadi. Ma’muriy jazo turlari. Ma’muriy jazo qo‘llanilishining umumiy qoidalari. Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar. Ma’muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar. Ma’muriy jazo qo‘llanish muddatlari.

Nazorat ishi.

Ijodiy faoliyat. (Tuhmat, haqorat qilish, shahvoniy shilqimlik qilish, Davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, Fuqarolarning shaxsiy va turar joyi daxlsizligini buzish).

VII bob. Jinoyat huquqi. Jinoyat protsessual huquqi. (6 soat)

Jinoyat huquqi.

Jinoyat huquqi tushunchasi. Jinoyat huquqining prinsip (tamoyil)lari. Jinoyat tushunchasi va belgilari. Ayb va uning shakllari. Qasd, qilmishni istisno etadigan holatlar. Jinoyat sodir etish va uning oqibatlari.

Jazo va uni tayinlash.

Jazo tushunchasi va maqsadlari. Jazo tizimi. Jarima. Muayyan huquqdan mahrum qilish. Majburiy jamoat ishlari. Axloq tuzatish ishlari. Ozodlikni cheklash. Ozodlikdan mahrum qilish. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish. Jazo tayinlashning umumiy asoslari. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar.

Kriminologiya. Jinoyatchilik va uning sabablari.

Kriminologiya tushunchasi. Jinoyatchilik tushunchasi, belgilari, ko‘rsatkichlari, tarkibi va tuzilishi. Jinoyatchilikning sabablari va uning oldini olish. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik. Jinoiy javobgarlik tushunchasi. Jinoiy javobgarlikka tortish yoshi. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar.

Shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasi. Hayotga va sog‘liqqa qarshi jinoyatlar. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar (Odam savdosi tushunchasi. Odam o‘g‘irlash, tuhmat va haqorat qilish (Zo‘ravonlikni oldini olish va

unga qarshi kurashish). Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (Urushni targ‘ib qilish, Agressiya, Genotsid, Terrorizm. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish). O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar (Davlatga xoinlik qilish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish. Josuslik. Qo‘poruvchilik. Davlat sirlarini oshkor qilish.).

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.

O‘zgalar mulkini talon-toroj qilishga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar. Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar. Xususiy mulk huquqini buzish. Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish

Boshqaruv va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari (Pora olish. Pora berish. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish. Yolg‘on xabar berish.). Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. (Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (Media savodxonlik). Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish).

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va ishtirokchilari.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari (Umumqabul qilingan xalqaro huquq prinsiplarining protsessual qonun hujjatlarida e’tirof etilishi. Aybsizlik prezumpsiyasi. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari.). Jinoyat protsessi ishtirokchilari. Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar (Dalillar va isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar. So‘roq qilish).

Seminar: 1 soat

Ijodiy faoliyat.

VIII bob. Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (2 soat)

Tabiatni muhofaza qilish.

Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik. Ekologik bilim, ong va madaniyat.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish tushunchasi. Tabiiy resurslardan foydalanish.

Yer-suv, yer osti boyliklarini muhofaza qilish.

Yer-suv, yer osti boyliklarini muhofaza qilish tushunchasi. Yer-suv, yer osti boyliklaridan foydalanish.

O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish.

O‘simlik dunyosidan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilish. Hayvonot dunyosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari.

Atrof-tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish.

Atrof-tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish tushunchasi. Atrof-tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish prinsiplari. Obyektlari.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik tushunchasi. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik uchun javobgarlik. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar

Nazorat ishi.

Ijodiy faoliyat. (Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish. Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish.).

Mavzuni rejalashtirish

T/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Seminar
1.	Jamiyat va inson huquqlari	4	4	
2.	Oilaviy – huquqiy munosabatlar	6	5	1
3.	Fuqarolik – huquqiy munosabatlar	6	5	1
4.	O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat	4	4	
5.	Mehnatga oid huquqiy munosabatlar	6	5	1
6.	Ma’muriy-huquqiy munosabatlar	4	4	
7.	Jinoyat huquqi. Jinoyat protsessual huquqi	6	5	1
8.	Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari	4	4	
	Jami:	**40**	**36**	**4**